FOYDALANISH QO‘LLANMASI

IKKI KANALLI WI-FI MODUL

QS-WIFI-S10-2C



Tuya Smart ilovasi va devor kalitlari orqali ikkita mustaqil yoritish kanalini boshqarish uchun.

Wi-Fi • 2CH • Tuya Smart

TEXNIK XUSUSIYATLAR

Asl yo‘riqnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlar

Model	**QS-WIFI-S10-2C**
Ta’minot	**AC 100-240 V, 50/60 Hz**
Maksimal yuklama	**LED 2×250 W; 2×10 A***
Wi-Fi	**2.4-2.4835 GHz**
Standart	**IEEE 802.11 b/g/n**
Harorat	**–10 … +40 °C**
O‘lcham	**39.2 × 39.2 × 18 mm**
Himoya	**IP20**
Kafolat	**1 yil**

* Yuklama qiymatini qurilma yorlig‘ida tekshiring.

IMKONIYATLAR

Masofadan boshqarish

Tuya Smart ilovasi orqali smartfondan boshqarish.

Jadval

Taymer va avtomatik yoqish/o‘chirish.

Mahalliy boshqaruv

Oddiy devor kaliti bilan ishlash.

Ovozli yordamchilar

Mos integratsiyalar, jumladan Alexa va Google Assistant orqali boshqarish.



O‘RNATISH VA XAVFSIZLIK

- Elektr tarmog‘iga ulash hamda montaj ishlarini faqat malakali elektrik bajarishi kerak.
- Ish boshlashdan oldin tarmoq o‘chirilishi va kuchlanish yo‘qligi mutaxassis tomonidan tekshirilishi zarur.
- Qurilmani namlik, yuqori harorat va mexanik shikastlanishdan saqlang.
- Korpusni ochmang va qurilmani mustaqil ta’mirlamang.

QO‘LDA BOSHQARISH

Modul ikki mustaqil yuklama kanaliga ega va mos devor kalitlari bilan boshqarilishi mumkin.

Ilovadagi boshqaruv va devor kaliti qurilma imkoniyatlari doirasida o‘zaro mos ishlaydi.

Amaldagi ishlash usuli ulanish, sozlamalar va elektr ta’minotiga bog‘liq.

ULANISH SXEMALARI



Aniq ulanish uchun ishlab chiqaruvchining asl sxemasi va klemma belgilaridan foydalaning. Montajni mutaxassis bajaradi.

SAVOL VA JAVOBLAR

Qurilma ilovaga qo‘shilmasa:

Modulga elektr ta’minoti kelayotganini tekshiritiring.

Telefon Wi-Fi 2,4 GHz tarmog‘iga ulanganini tekshiring.

Tarmoq paroli to‘g‘ri kiritilganiga ishonch hosil qiling.

Aloqa sifati va ulash rejimini tekshiring.

SAVOL VA JAVOBLAR

Qaysi qurilmalar mos?

Modul parametrlariga mos maishiy elektr yuklamalari.

Wi-Fi uzilib qolsa nima bo‘ladi?

Elektr ta’minoti saqlansa, oddiy kalit ishlashi mumkin. Masofadan boshqarish ishlamaydi.

Router yoki parol o‘zgarsa-chi?

Yangi tarmooqqa qurilmani qaytadan ulash kerak bo‘ladi.

TUYA SMART

1. ILOVANI O‘RNATISH

App Store yoki Google Play orqali Tuya Smart ilovasini toping va o‘rnating.

Ilovani ochib, qurilmalarni topish uchun kerakli ruxsatlarni bering.



2. RO‘YXATDAN O‘TISH

Telefon raqami yoki elektron pochta orqali hisob yarating.

Xizmat yukrgon tasdiqlash kodini kiriting va hisobga kiring.



3. ULANISH REJIMI

Mutaxassis o‘rnatganidan keyin modulni ishlab chiqaruvchi ko‘rsatgan usulda qidiruv rejimiga o‘tkazing.

Odatda indikator tez-tez miltillaydi. Indikator holati asl yo‘riqnomada ko‘rsatilgan.



4. QURILMANI QO‘SHISH

Tuya Smart ilovasida «+» tugmasini bosing va qurilmani qo‘shishni tanlang.

Telefon qo‘llab-quvvatlasa, ilova Bluetooth yordamida avtomatik qidiruvni ham taklif qilishi mumkin.



5. BOG‘LANISH

Ilova ekranidagi ko‘rsatmalarga amal qiling.

Tarmoq sharoitiga qarab qurilmani topish va ulash taxminan 10–120 soniya davom etishi mumkin.

Telefon barqaror Wi-Fi signali zonasida bo‘lsin.



6. BOSHQARISH

Muvaffaqiyatli ulanishdan so‘ng qurilma Tuya Smart ilovasida ko‘rinadi.

Unda yoqish, o‘chirish va mavjud avtomatlashtirish sozlamalaridan foydalanish mumkin.



7-8. QO‘SHIMCHA FUNKSIYALAR

Mos xizmatlar mavjud bo‘lsa, ovozli boshqaruvni ulash va oila a’zolari bilan umumiy foydalanish mumkin.

Talablar: 2,4 GHz Wi-Fi router, qo‘llab-quvvatlanadigan iOS yoki Android smartfon hamda Tuya Smart ilovasi.

Eslatma: ushbu qayta ishlangan yo‘riqnomadagi elektr sxemalari umumiy ko‘rinish uchun; asl ishlab chiqaruvchi sxemasining o‘rnini bosmaydi.

